

FUQAROLIK JAMIYATINI QURISHDA RAHBAR XODIMLARNING ROLI

Ravshanova Sayyora Tojiyevna
Denov tadbirkorlik va pedagogika
instituti 4- bosqich
Tarix yo'nalishi talabalasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada fuqarolik jamiyati rivojlanishining normativ-huquqiy tartibga solinishi holatini va ushbu sohada huquqni qo'llash amaliyotini tizimli o'rganish va tahlil qilishni tashkil etish, fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatining tashkiliy-huquqiy va iqtisodiy asoslarini takomillashtirish, jamoatchilik boshqaruvida ularning ishtirokini kengaytirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish bo'yicha takliflar tayyorlash hamda fuqarolik jamiyatini qurishda rahbarlarning o'rni haqida bilib olishimiz mumkin.

Kalit so'zlar: Jamiyat, shaxs, demokratiya, rahbar, fuqarolik jamiyati, siyosat, konstitutsiyaviy huquq, iqtisodiyot va hk.

Kirish: Fuqarolik jamiyati- konstitutsiyaviy huquq nazariyasida huquq va demokratiyaga asoslangan ijtimoiy hayotning zarur oqilona usuli; insonga uning iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayoti shakllarini erkin tanlash kafolatlanadigan, qonun ustuvorligi va inson huquqlari hamda erkinliklari qaror topadigan, ko'p partiyaviylik, siyosiy institutlar, mafkura va fikrlarning xilma-xilligi ta'minlanadigan hamda o'zini o'zi boshqarish organlarining mavqei baland bo'lgan ijtimoiy tuzum. Bunda mamlakatning har bir fuqarosi siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy va huquqiy jihatdan o'z ehtiyojlarini jamoat birlashmalari va fondlari, o'zini o'zi boshqarish organlari, siyosiy partiyalar va nodavlat notijorat tashkilotlar ishida faol ishtirok etib, ular orqali qondiradilar. Fuqarolik jamiyatida fuqarolar davlat faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini o'rnatadilar, davlatning ko'pgina vakolatlari jamoat tashkilotlari zimmasiga yuklanadi. Davlat hokimiyati esa mamlakatning umumiy taraqqiyot rejalarini tuzadi, uning strategiyasini ishlab chiqadi, mudofaa, milliy xavfsizlik, davlat mustaqilligi va chegaralari daxlsizligini, uning suverenitetini ta'minlash, pulmoliya, soliq, bank siyosati, tashqi siyosat va jahon hamjamiyati bilan aloqalar tizimini yaratadi, uni boshqaradi. Fuqarolik jamiyatini qurish kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari bosqichma-bosqich o'tish orqali ro'y beradi. Kuchli davlatdan – kuchli jamiyat sari. 2000-yildan bugungi kunga qadar bo'lgan davrni qamrab olgan bosqichda mamlakatda faol demokratik yangilanish va modernizatsiyalash jarayonlari kuzatildi. Ushbu bosqichning asosiy vazifasi qilib milliy davlatchilik asoslarini mustahkamlashga qaratilgan kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyatiga bosqichma-bosqich o'tish masalasi qo'yildi. Mamlakatning

siyosiy va iqtisodiy hayotida demokratlashtirish va liberallashtirish jarayonlari chuqurlashdi. Inson haq-huquqlari va erkinliklarini himoya qiluvchi mustaqil sud tizimi mustahkamlandi, fuqarolik jamiyati asoslari rivojlandi.

Asosiy qism: Fuqarolik jamiyati haqida ilk tasavvurlar Aristotelning „Siyosat“ asarida bayon etilgan. Unga ko‘ra, insonning erkin yashash huquqi kishilik jamiyatining adolat va qonun ustuvorligi asosida tashkil etilishi orqali ta‘minlanishi lozim. Jamiyatni boshqarishda qonunlarning to‘g‘ri va adolatli bo‘lishiga alohida e‘tibor beriladi. Bu g‘oyalar XVII asrga kelib keng rivojlandi. Jumladan, T.Gobbs asarlarida takomillashtiriddi. XVIII asr Buyuk fransuz inqilobi davrida Inson va fuqaro huquqlari deklaratsiyasi e‘lon qilinishi bilan esa Fuqarolik jamiyati tushunchasi keng tarqala boshladi. Chunki jamiyatning teng huquqli a‘zolari – „fuqarolar“ tushunchasi paydo bo‘ldi, ular jamiyat va davlat manfaatlari bilan bog‘langan shaxsiy manfaatlarini anglay boshladilar. Kant, Russo, Gegel, Popper ilgari surgan fikrlar Fuqarolik jamiyati ning yangidan-yangi qirralarini, umuminsoniy qadriyat sifatidagi mohiyatini ochib berdi. Sharqda Fuqarolik jamiyatining o‘ziga xos talqini mavjud. Bu, bevosita, axloq, madaniyat va ma‘naviyatning huquq bilan uyg‘unlashgan, fe‘latvor, xattiharakatlar va qoida me‘yorlarning uzviy uyg‘unlashgan shakli bilan bog‘liq. Jumladan, eng qadimgi madaniy tarixiy-huquqiy yodgorlik – Avestoda kishilarning uyushib yashashi, o‘zaro munosabatlar va aloqalarning axloq va me‘yorlarga tayanishi kabi g‘oyalar ilgari surilgan. Bunda o‘zo‘zidan jamiyatda qonun ustuvorligiga erishish, jamiyatni shaxs tomonidan emas, qonun boshqarishi kabi Fuqarolik jamiyatining ilk belgilari namoyon bo‘lgan. Forobiyning „Fozil odamlar shahri“ asarida mamlakatni boshqarishda adolatli qonun zarurligi, faol Fuqarolik jamiyatini shakllantirish mohiyati chuqur tahlil etilgan. Qonunlari mukammal bo‘lgan mamlakatda adolat, inson huquqlari ustuvor bo‘lishi muqarrar ekanligi bayon qilib berilgan. Forobiya kura, „Shahar (mamlakat) aholisi xushxulqqa ega bo‘lmagan taqdirda hokimiyatga ehtiyoj tug‘iladi“, jinoyatchilik, bezorilik, qonunbuzarlik qonunlar zaif, aholi axloqiy ma‘naviy jihatdan barkamol bo‘lmagan sharoitda avj oladi. Bunday xalqni tartibga chaqirish uchun kuchli ta‘sir o‘tkazuvchi hokimiyat kerak bo‘ladi. Bu kabi g‘oyalar Ibn Sino, Beruniy, Xorazmiy, Amir Temur, Alisher Navoiy, Bobur va boshqa tomonidan ham ilgari surilgan va amaliyotda keng qo‘llanilgan. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. Islom Karimovning 2010-yil 12-noyabrda bo‘lib o‘tgan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisidagi „Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi“ mavzusida qilgan ma‘ruzasi amalga oshirilgan islohotlarni sarhisob qilish hamda jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarini yanada rivojlantirish yo‘nalishlarini belgilab olish nuqtai nazaridan muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Ushbu

konsepsiyada mamlakatimizda fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat barpo etish borasida amalga oshirilgan ishlar mufassal tahlil etildi. Bu yo'nalishdagi demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va izchil davom ettirish bo'yicha dolzarb vazifalar belgilab berildi. Kuchli davlatdan – kuchli jamiyat sari. 2000-yildan bugungi kunga qadar bo'lgan davrni qamrab olgan bosqichda mamlakatda faol demokratik yangilanish va modernizatsiyalash jarayonlari kuzatildi. Ushbu bosqichning asosiy vazifasi qilib milliy davlatchilik asoslarini mustahkamlashga qaratilgan kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyatiga bosqichma-bosqich o'tish masalasi qo'yildi. Mamlakatning siyosiy va iqtisodiy hayotida demokratlashtirish va liberallashtirish jarayonlari chuqurlashdi. Inson haq-huquqlari va erkinliklarini himoya qiluvchi mustaqil sud tizimi mustahkamlandi, fuqarolik jamiyati asoslari rivojlandi. Fuqarolarning iqtisodiy va siyosiy faolligi ortib bordi. Islom Karimov tomonidan mamlakatda fuqarolik jamiyatini shakllantirish va demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish konsepsiyasi ishlab chiqildi. Ushbu bosqich davlat hokimiyati va boshqaruvini yanada demokratlashtirish, sud-huquq tizimi, axborotlashtirish sohasini isloh etish, so'z erkinligini ta'minlash, saylov qonunchiligini takomillashtirish, iqtisodiyotni liberallashtirishga qaratilgan demokratik bozor islohotlarini chuqurlashtirishga qaratilgani bilan xarakterlanadi. Mamlakatimizda yangi O'zbekistonni barpo etish, Uchinchi Renessans poydevorini yaratish borasida tub o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Bu boradagi islohotlarning samarali hayotga tatbiq etilishi, birinchi navbatda, davlat xizmatchilariga bog'liq. Shu bois, zamonaviy ehtiyojlarga javob beradigan davlat xizmati apparatini shakllantirish ustuvor vazifaga aylandi. "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi qonun bu borada muhim dasturilamal bo'layotir. Mazkur qonunning qabul qilinishi "Xalq davlat organlariga emas, davlat organlari xalqqa xizmat qilishi kerak", degan tamoyilni to'la ro'yobga chiqarish, davlat fuqarolik xizmatining tashkiliy-huquqiy mexanizmini tartibga solish uchun mustahkam huquqiy poydevor bo'ldi. Qonunda belgilangan vazifalarni ro'yobga chiqarish maqsadida keng qamrovli ishlar olib borilmoqda. Xususan, bugungi kunga kelib davlat organlari va tashkilotlaridagi rahbarlik lavozimlari uchun kadrlar zaxirasini shakllantirish ishlari amalga oshirildi. Jumladan, Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi hamda Davlat boshqaruvi akademiyasi tomonidan ishlab chiqilgan maxsus dastur asosida milliy kadrlar zaxirasiga kiritilgan nomzodlar uchun qisqa muddatli malaka oshirish kursi tashkil etilyapti. Navbatdagi kursda Andijon, Buxoro, Navoiy, Namangan, Toshkent, Farg'ona viloyatlari va Toshkent shahridan milliy kadrlar zaxirasiga olingan nomzodlar malaka oshirdi. O'quv davomida ham nazariy, ham amaliy mashg'ulotlar tashkil etildi. Mashg'ulotlarni tegishli vazirlik va idoralar rahbarlari, Davlat boshqaruvi akademiyasi professor-o'qituvchilari olib bordi. Tinglovchilarga "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi qonun mazmun-mohiyati, zamonaviy rahbar qiyofasi, hokimlik institutining institutsional va funksional jihatlari, mahallalardagi hokim yordamchilari

faoliyatini samarali tashkil etish va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar xususida bilim va ko'nikma berildi. Davlat xizmatida jamoatchilik bilan aloqalar va media savodxonlik kabi bir qator muhim yo'nalishlarda bugungi kun rahbarlari uchun zarur ma'lumotlar taqdim etildi, mas'ul rahbarlar bilan ochiq muloqotlar tashkil etildi. Konstruktiv ruhda o'tgan ochiq muloqotlarda tizimdagi mavjud muammolar haqida fikrlashildi, tinglovchilar o'zlarini qiziqtirgan savollarga javob oldi, takliflar berdi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda fuqarolik jamiyati tushunchasi murakkab ijtimoiy tushunchalardan biri bo'lib, ma'lum rivojlanish bosqichlariga ega hamda o'zini takomillashtirib borayotgan tushuncha hamdir. Bu tushuncha ayniqsa bugungi globalashuv davrida yuksak darajada rivojlanmoqda. Chunki bu davrda insonlarning siyosiy, ijtimoiy faolligi, ijtimoiy munosabatlardagi ishtiroki o'smoqda. Bularning barchasi kelajakda fuqarolik jamiyatini o'sishiga rivojlanishiga va yangi bir rivojlanish bosqichiga ko'tarilishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Аристотель. Политика. Сочинения в 4-х томах. М., 1983. Т. 4.
2. Гегель Г. Философия права. М., 1990.
3. Серебряков, С.Л. Цивилизованные основы для формирования гражданского общества в России // Социальнополитический журнал. 1995. №2.
4. Политический словарь. М., 1993.
5. Смольков, В.Г. Гражданское общество и государство. Гражданское общество. М., 1993.
6. Кочетков, А.П. Россия на пороге XXI века. М., 1998.
7. Левин, И.Б. Гражданское общество на Западе и в России // Полис. 1996. №5.